

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ARID HUDUDLAR SUV RESURSLARI:
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI
(MARKAZIY OSIYO MISOLIDA)**

Ergashev Husniddin Saydali o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.

[*h7858691@gmail.com*](mailto:h7858691@gmail.com)

Telefon: +998 91 323 91 90

Annotatsiya: Global iqlim o'zgarishi bugun butun dunyo mamlakatlarida qurg'ochilik, atmosferaning ifloslanishi kabi dolzarb ekologik muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Sayyoramizda o'rtacha harorat me'yorining yil sayin ko'tarilib borayotgani nafaqat suv tanqisligini, shu bilan birga Arktikadan tortib, hatto Markaziy Osiyodagi muzliklarning ham keskin kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bular bari bir-biriga bog'liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Kalit so'zlar: Sayyoramizda, Arktikadan, Cho'llanish va yerlar, degradatsiyaga, Sirdaryo va Amudaryodan,

Abstract: Today, global climate change is exacerbating urgent environmental problems such as drought and atmospheric pollution in the countries of the world. The annual increase in the average temperature on our planet is causing not only a water shortage, but also a sharp reduction of glaciers in the Arctic and even in Central Asia. All these cause a number of interrelated problems.

Key words: On our planet, from the Arctic, to desertification and land degradation, from the Syrdarya and Amudarya

Ma'lumki, mintaqamiz okeanlardan uzoqda, qurg'ochil hududda joylashgan. Mutaxassislar fikricha, bu iqlim inqirozi bilan bog'liq muammo va ekologik ofatlarga ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, agar hozirgi isish tezligi saqlanib qolsa va asr oxiriga kelib dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 4 darajaga ko'tarilsa, Markaziy Osiyoda bu ko'rsatkich 7 darajaga ortadi. Bunday holatning davom etishi mintaqadagi muzliklar erishini, tabiiy ofatlar tez-tez takrorlanishini, qurg'ochilik va suv taqchilligini yanada kuchaytirishi, o'simlik hamda hayvonot dunyosiga tiklab bo'lmas zarar yetkazish ehtimolini oshiradi. Cho'llanish va yerlar degradatsiyasi jarayonining tezlashishi esa har qanday kishini o'ylantirib qo'yadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mintaqamizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning qariyb 37 foizi degradatsiyaga uchragan. So'nggi 50 yil ichida mintaqamizda mamlakatlarida cho'llangan yerlar hajmi 20 foizga oshgan. Ba'zi hududlarda qishloq xo'jaligi yerlari 40 foiz, ayrim joylarda 100 foizgacha degradatsiyaga uchraganini

ko'rish mumkin. Bu muammolar mintaqa aholisining oziq-ovqat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid solish ehtimoli katta. Bu ham aholi turmush tarzi va ular yashaydigan hududning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Hozirgi noqulay ekologik sharoit tabiiy ofatlarni yuzaga keltirmoqda va bu mintaqadagi davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy xavf tug'diradi. Poytaxtimizdagi Markaziy Osiyo xalqaro institutida "Markaziy Osiyodagi suv masalalariga nigo" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada ham ayni jihatlariga alohida e'tibor qaratildi, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, ushbu muammolarni hal etishda innovatsion bilim va tajribalarni joriy etish masalalari muhokama etildi. Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, mavjud holat bundan 30–40 yil keyingi davr uchun bashorat qilinayotgan prognozlar juda salbiy. Demak, mintaqamizni yaqin kelajakda suv tanqisligi bilan bog'liq jiddiy muammo kutyapti. Modomiki shunday ekan, taxmin qilinayotgan muammoning oldini olish yoki salbiy ta'sirini yumshatish mumkinmi? Soha mutaxassisleri fikriga ko'ra, mumkin, albatta. Faqat, hozir imkon borida, bugundan kirishish shart. Aks holda kech bo'ladi. Kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish ko'plab muammoning oldini oladi, degan ta'rifni ko'p eshitganmiz. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaralganda anglashiladiki, muzliklar erib bitishi va uning ortidan kuchayadigan suv tanqisligining oldini olish yoki salbiy ta'sirini kamaytirish uchun, birinchi navbatda, ekologik barqarorlikka erishish talab etiladi. Bir paytlar cho'llarni o'zlashtirish asnosida Sirdaryo va Amudaryodan rejasiz olingan suv hisobiga Orol dengiziga borib quyilayotgan suv miqdori keskin kamayib hozirgi manzarasi yuzaga kelgan. Endi esa muzliklar erishi, chang bo'ronlari davriyligi va ularning ortib borishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, suv resurslarining taqchilligi kabi salbiy ko'rinishlarda namoyon bo'layotgan Orol dengizi falokati mintaqamizda iqlim o'zgarishini ikki barobarga tezlashtirdi. Bir-biriga chambarchas bog'liq tabiatdagi bu kabi o'zgarishlar, o'z navbatida, yana ko'plab boshqa muammolar yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Shu bois ham mamlakatimizda so'nggi yillarda Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, yashil hududlarni kengaytirishga jiddiy va alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Orol dengizining qurigan qismida birgina o'tgan yilda 107 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" barpo etildi. Bunday maydonlar jami 1 million 620 ming gektarga yetkazilgan. Joriy yilda ham bu boradagi ishlar davom ettirilib, yana 100 ming gektar maydonni "o'rmonzorlashtirish" rejalashtirilgan. Yashil maydonlarni kengaytirish ishlari nafaqat Orol hududi, balki yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida uyushqoqlik bilan olib borilyapti. Bunday hududlarni ko'paytirishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yili e'lon qilingan "Yashil makon" umummilliy loyihasi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Binobarin, loyiha doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chatini ekish, pirovardida yurtimizdagi yashil maydonlar hajmini 8 foizdan 30 foizga oshirish maqsad qilingan.

Zero, yashil maydonlar kengayib borishi atmosfera havosini yaxshilashga, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yashillik borasidagi sa'y-harakatlar mavjud muammo oqibatlarini yengillashtirishga imkon yaratadi, lekin, muammoga to'liq yechim bo'la olmaydi. Aytaylik, suv tanqisligi masalasi. Yashil maydonlarni kengaytirish hisobiga global isish jarayonini to'xtatish yoki sekinlashtirish, natijada muzliklar va daryolarda muvozanatni saqlab qolish mumkindir, ammo chuchuk suvga bo'lgan talabning yildan-yilga ortib borishi evaziga ob-hayot taqchilligi ko'lami ortib boryapti.



1-rasm

Boshqa tomondan esa, global iqlim o'zgarishlari natijasida chuchuk suv zaxiralari hajmi qisqarmoqda. Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi u yoki bu darajada suv tanqisligidan aziyat chekayotir. Bu holatda muammoga yagona yo'l – tejamkorlik hisoblanadi. Suvni tejash haqida gap ketganida, ko'pchiligimiz odatda tomchilatib, yomg'ir latib, diskret usulda sug'orish kabi suv tejovchi texnologiyalarni tushunamiz.

Xulosa: Aslini olganda ham bu sug'orish usullari katta miqdorda suvni tejashga imkon yaratishi bilan ahamiyatlidir. Ayni shu bois ham mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Agror sektor vakillariga bu borada qator imtiyozlar berilishi yo'lga qo'yilgani esa uning tobora ommalashib borishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev A. Ergashev T. "Ekologiya , biosfera va tabiatni muhofaza qilish" Toshkent "Yangi asr avlod" 2005 y.
2. To'xtayev A.S. "Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish" . Toshkent
3. Buriyev S.S Mahkamov D.A Sherimbetov V.X "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" Toshkent 2019y. Noshir nashriyoti .
4. Dilorom Normatova "Ekologiya". Toshkent